



UO'K: 94(575.146)“1991/2025”

Zulxumorxon BOYMATOVA,
Qo'qon davlat universiteti Andijon filiali o'qituvchisi
E-mail:zulxumorxonboymatova41@gmail.com,

Andijon davlat tibbiyot instituti professori, DSc A.Abduxalimov taqrizi asosida

1991 – 2010-YILLARDA FARG'ONA VILOYATI SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR

Аннотация

Ushbu maqolada 1991 – 2010-yillar mobaynida Farg'ona viloyati sog'liqni saqlash tizimida amalga oshirilgan islohotlar ilmiy-tahliliy jihatdan yoritilgan. Mustaqillikning dastlabki yillarida sog'liqni saqlash tizimining holati, uning tashkiliy-huquqiy va moddiy-texnik muammolari tahlil qilingan. Shuningdek, 2000-yillardan boshlab birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini rivojlantirish, qishloq vrachlik punktlarini tashkil etish, tibbiy xizmat sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar bayon etilgan. **Kalit so'zlar:** Farg'ona viloyati, sog'liqni saqlash tizimi, tibbiy islohotlar, mustaqillik davri, birlamchi tibbiy yordam, qishloq vrachlik punktlari.

РЕФОРМЫ, РЕАЛИЗОВАННЫЕ В СИСТЕМЕ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ ФЕРГАНСКОГО РЕГИОНА В ПЕРИОД С 1991 ПО 2010 ГОД

Аннотация

В данной статье представлен научно-аналитический обзор реформ, проведенных в системе здравоохранения Ферганской области в период с 1991 по 2010 год. Анализируется состояние системы здравоохранения в первые годы независимости, ее организационные, правовые, материально-технические проблемы. Также описываются меры, направленные на развитие первичной медико-санитарной помощи, создание сельских медицинских центров и повышение качества медицинских услуг с 2000-х годов.

Ключевые слова: Ферганский регион, система здравоохранения, медицинские реформы, период независимости, первичная медико-санитарная помощь, сельские медицинские пункты.

REFORMS IMPLEMENTED IN THE HEALTHCARE SYSTEM OF FERGANA REGION IN 1991 – 2010

Annotation

This article provides a scientific and analytical overview of the reforms implemented in the healthcare system of Fergana region during 1991-2010. The state of the healthcare system in the early years of independence, its organizational, legal, and material and technical problems are analyzed. Also, measures aimed at developing primary health care, establishing rural medical centers, and improving the quality of medical services since the 2000s are described.

Keywords: Fergana region, healthcare system, medical reforms, independence period, primary health care, rural medical stations.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida sog'liqni saqlash tizimini tubdan isloh qilish masalasi kun tartibiga qo'yildi. Aholi salomatligini mustahkamlash, tibbiy xizmatlar sifatini oshirish hamda sog'liqni saqlash sohasini zamon talablariga mos ravishda rivojlantirish mustaqil davlat siyosatining muhim tarkibiy qismiga aylandi. Ayniqsa, sobiq ittifoq davrida markazlashgan va eskirgan boshqaruv mexanizmlariga tayangan sog'liqni saqlash tizimini qayta tashkil etish dolzarb vazifa sifatida namoyon bo'ldi.

O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimi uchun chuqur tarkibiy o'zgarishlar, normativ-huquqiy asoslarning shakllanishi hamda tibbiy xizmat ko'rsatishning yangi modellari joriy etilgan davr bo'ldi. Ushbu jarayonlar respublikaning barcha hududlari qatori Farg'ona viloyatida ham izchil amalga oshirildi. Aholi zich joylashgan, demografik va ijtimoiy xususiyatlari bilan ajralib turuvchi Farg'ona viloyati sog'liqni saqlash tizimida olib borilgan islohotlarni hududiy jihatdan o'rganish ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. 1992-yilda Farg'ona viloyatida bir vaqtning o'zida 27 mingga yaqin bemorni davolash imkoniyatiga ega bo'lgan 125 ta shifoxona faoliyat ko'rsatgan. Ularda 5 ming 945 nafar malakali shifokor mehnat

qilgan. Bu bir qaraganda respublikada yaxshi ko'rsatkich sanaladi.

Quva va Rishton tumanlarida poliklinika, Toshloq tumanida 60 o'rinli shifoxona, Qirguli va Bog'dod tumanlarida tish davolash poliklinikalari qurildi. Davolash muassasalari moddiy texnika bazasini mustahkamlash sohasida qator ishlar amalga oshirildi.

Biroq, shunga qaramay bu davrda aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishda qator kamchiliklar mavjud edi. Fuqarolar tomonidan sohaga oid bildirilayotgan ko'plab e'tirozlar buning dalili edi. So'h tumanidagi kardiologiya sanatoriysi, toshloq tumanidagi to'g'riqxon, Farg'ona shahridagi bolalar shifoxonasi va boshqa zaruriy ob'ektlarning qurilishi o'z vaqtida yakunlanmay qoldi[1].

Tibbiyot maskanlarini asbob-uskunalar hamda jihozlar, oziq-ovqat mahsulotlari dori darmonlar bilan ta'minlash ham o'lda jo'lda qolib ketgan. Eng achinarlisi, budjet tanqisligi avjiga chiqqan ayni sharoitda Uchko'prik, Bog'dod tumanlari hamda Quvasoy shahrida ajratilgan mablag'lardan boshqa maqsadlarda foydalanish hollari kuzatilgan[1].

1993-yilda viloyat aholisining 63,3 foizi qishoq joylarida istiqomat qilgan. Ularning salomatligini saqlash yo'lida 94 ta shifoxona, 266 ta poliklinikalar hamda 638 ta

feldsher-akusherlik punktlari doimiy ravishda xizmat ko'rsatganlar.

Viloyat sog'liqni saqlash bo'limi bu muassasalarni moddiy texnika bazasini yashilash yo'lida keyingi 1,5 yil mobaynida 260 o'rin joyga ega bo'lgan 3 ta zamonaviy shifoxona (Toshloq tumanida 100 o'rinli, Farg'ona tumanida 60 o'rinli, Quva tumanida 100 o'rinli) bir smenada 1 ming 500 nafar beror qabo'lga mo'ljallangan 17 ta poliklinika va ambulatoriyalar bitkazilib foydalanishga toshirildi. Lekin bu davrda Oltiariq tumanada birorta ham qishoq vrachlik ambulatoriyasi yoki feldsher-akusherlik punkti, Uchko'prik tumanida zamonaviy yuqumli kasalliklar shifoxonasining qurilishi moliyalashtirilmaganligi bois amalga oshirilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Qishoq joylardagi tibbiyot muassasalarini mutaxassislar bilan ta'minlanishini talab darajasiga yetkazish uchun 1992-yilda viloyat sog'liqni saqlash bo'limi ixtiyoriga jo'natilgan 366 nafar shifokordan 257 nafariga (70 foiz) ishlash uchun qishloq joylaridagi davolash-profilaktika muassasalariga yo'llanma berilgan. Bundan tashqari 135 ta qishloq vrachlik ambulatoriyalarining bosh shifokorlari lavozimlari qisqartirilib, ular bevosita davolash ishiga qaytarilgan. Natijada qishloq aholisining shifokorlar bilan ta'minlanishi 10 foizga yaxshilangan [2].

Qishloq joylarida xizmat qilayotgan tibbiyot xodimlarining 1 ming 500 nafardan ziyodi keyingi 1,5 yil ichida o'z malakalarni oshirdilar. O'quvdan so'ng tibbiyot xodimlarining bilimlari sinovdan o'tkazilib, 254 nafar shifokorga, 220 nafar o'rta tibbiyot xodimlariga toifa berilgan. Shunga qaramasdan toifali tibbiyot xodimlarining soni Yozyovon, Dang'ara, Furqat tumanlarida boshqa hududlarga nisbatan kam bo'lgan.

Viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi tomonidan qishloq aholisiga ko'rsatilayotgan tibbiy yordam sifatini yaxshilash maqsadida davolash muassasalarining faoliyatini yillik hisobot asosida tahlil qilib, qo'pol kamchiliklarga yo'l qo'ygan rahbar xodimlarga nisbatan tegishli choralar ko'rilgan. Bu kamchiliklarni yo'qotish maqsadida viloyat shifoxonalari imkoniyatlaridan foydalanib o'tgan 1,5 yil mobaynida rejali ravishda 36 marta joylarga chiqishlar tashkil qilingan. Bularning natijalari ko'chma tibbiy kengashlarda atroflicha muhokama etilgan. Joylarda yetuk malakali mutaxassislar tomonidan 5 ming nafardan ko'roq qishloq fuqarolariga malakali tibbiy yordam ko'rsatildi. 1 ming nafardan oritq murakkab xastalıkları bor bemorlar tanlanib viloyat shifoxonalari davolangan.

Qishloq aholisiga ko'rsatilgan tibbiy xizmatni shahar darajasiga yaqinlashtirish maqsadida tumanlardagi 11 ta yuqumli kasalliklar shifoxonalari qoshida reanimatsiya bo'limlari ochilgan. Tuman shifoxonalari davolanayotgan og'ir bemorlarni o'z vaqtida iqtisoslashgan viloyat shifoxonalari keltirish uchun sanitariya-aviatsiya bo'limi qoshida 3 ta ixtisoslashtirilgan jonlantiruvchi brigadalar tashkil qilingan. Bundan tashqari Oltiariq hamda Dang'ara tumanlaridagi tashhis markazlari va 9 ta tumanda xorijdan keltirilgan tibbiyot asbob-uskunali bilan jihozlangan diagnostika xonalari ishlab turishi qishloq aholisiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatning yaxshilanishiga olib kelgan[2].

Farg'ona viloyatida yuqumli kasalliklar bilan kasallanish yuqori bo'lib 1991-yilga nisbatan 1992-yilda paratit kasalligi 50 foizga, salmonilyoz kasalligi 16 foizga, yuqumli sariq kasalligi 15 foizga, zardobli gepatit kasalligi esa 13 foizga pasaygan. Lekin Yozyovon, Quva, Oltiariq hamda Uchko'prik tumanlarida aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash, chiqindilar uchun kanalizatsiya tarmoqlari yetarli darajada bo'lmagan. Natijada Yozyovon va Oltiariq tumanlarida viloyat ko'rsatkichiga nisbatan yuqumli sariq kasalligi bilan

kasallanish 1,5 barobar, Quva, Yozevon hamda Uchko'prik tumanlarida yuqo'shi ichak kasalligi bilan kasallanish 1,5-2 barobarga yuqori bo'lgan[2.22].

Tahlil va natijalar. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davridagi budget tanqisligini qoplash uchun Viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi tomonidan shifoxonalar tuzilishi qayta ko'rib chiqilib, 716 ta o'rin-joylarni ixtisoslashtirilgan. 2 ming 11 ta o'rin-joyga ega bo'lgan kunduzgi shifoxonalar tashkil qilingan. Ishlamayotgan o'rin-joylar hisobidan 522 ta o'rin-joy qisqartirilgan. Buning natijasida 60 million so'mdan ko'proq mablag' iqtisod qilinib, budjetdagi tanqislikni qoplash uchun yo'naltirilgan.

1993-yilda aholini dori-darmonlar bilan ta'minlashda sobiq Ittifoqdagi respublikalar o'rtasidagi bog'lanishlar bo'zilganligi tufayli ba'zi bir qiyinchiliklar yuzaga keldiki bu qiyinchiliklarni ijobiy hal etish uchun viloyat sog'liqni saqlash bo'limi, "Farmatsiya" ishlab chiqarish birlashmasi, viloyat hokimiyatining bevosita yordamida dori-darmonlar ta'minotini yaxshilash uchun bor imkoniyatlardan foydalanib 5-ta kichik korxonaga tashkil etdi. 30 gektar yerga dorivor o'simliklar ekildi. Barter usuli bilan boshqa respublikalardan 116 million so'mdan ko'proq mablag' hisobiga dori-darmonlar keltirildi. Lekin shunga qaramasdan dori-darmonlar bilan ta'minlanish 55 foizni tashkil etgan[2].

1993-yilga kelib Farg'ona viloyati qishloq aholisiga 638 ta feldsher-akusherlik, 143 ta qishloq ambulatoriyalari hamda 37 ta qishloq uchastka shifoxonalari tibbiy yordam ko'rsatmoqda. 1992-yilda ana shu davolash muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustaxkamlashga 40 million 200 ming so'm mablag' sarflangan. Bundan tashqari 9 million 250 ming so'mlik tibbiyot asbob-uskunlari sotib olingan. Qishloq aholisi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilishda "Salomatlik" markazlarni adohida o'rin tutadi. Bu davrda viloyatda 18 ta shunday markazlar faoliyat ko'rsatgan.

Qishloqlarda ayrim kasalliklarning ortib borayotgani, antisaniitariya holatlari, dala shiyponlari, mavso'miy bog'chayashilar ishi o'z xoliga tashlab ko'yilgan. Xaligacha viloyat bo'yicha 1 ming 696 ta dala shiyponiga ichimlik suvi yetkazib berilmagan.

Yaqin o'tmishning eng havfli dardlaridan biri bo'lgan sariq kasali ayrim tumanlarda yanada ko'paygan. 1992-yilda viloyat bo'yicha har yuz ming aholiga 448 ta sariq kasaliga chalingan bemor aniqlangan.

1993-yilda qishloq ho'jaligi ishlari bilan band bo'lgan xodimlardan 30 foizi sog'liqni saqlash bo'limlari tomonidan dispanser hisobga olingan. Hisobda turadigan 100 mingdan ortiq kishidan 28 foizigina sog'lomlashtirilgan[2].

Aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash ko'p jihatdan odamlarning salomatligiga ta'luqlidir. Ma'lumki, ko'plab og'ir yuqumli kasalliklar suv manbaalarining iflosligidan kelib chiqadi. Afsuski bunday havfli kasalliklar 1993-yilning birinchi choragida o'tgan yilning shu choragiga nisbatan ko'paygan.

Masalan Quva tumanida 16 kishi ichak kasaliga chalingan bo'lsa, bu yili 18 kishi mana shunday og'ir dardga chalingan. O'tkir ichak kasalliklari Uchko'prik tumanida o'tgan yildagi 14 tadan bu yil 42 taga yetgan. Furqat va Yozyovon tumanlarida ham shunday ko'ngilsiz hodisalar ro'y bergan[3].

1994-yilgi ma'lumotlarga qaraganda Farg'ona viloyatida davolash profilaktika muassasalarining moddiy texnika bazasini yaxshilash maqsadida keyingi 3 yilda 815 o'rin-joyga ega bo'lgan zamonaviy shifoxonalar, 324 bemorni qabo'l qilish imkoniyatiga ega bo'lgan ambulatoriya va poliklinikalar, 2 sanitariya-epidemiologik stansiyalari, hamda 160 o'rinli go'daklar va bolalar uyi foydalanishga topshirildi.

Qo'qon shahrida 120 o'rinli ko'z xastalıkları shifoxonasi, 200 nafar bemorini qabul qiluvchi poliklinika, Toshloq tumanida 60 o'rinli uchastka shifoxonasi, Beshariq tumanida 120 o'rinli onalar-bolalar sanatoriyasi, Farg'ona shahrida viloyat tug'ruqxonasi qoshida 6 o'rinli reanimatsiya bo'limi, 40 kreslolik viloyat bolalar stomatologiya poliklinikasi, 200 o'rinli viloyat bolalar shifoxonasi ochildi.

Ushbu muassasalarni zamonaviy tibbiyot asbob-uskunalar bilan o'z vaqtida jihozlash maqsadida ayirboshlash uchun olinayotgan sanoat hom-ashyolari va tibbiyot paxtasi hisobiga Mustaqil hamdo'stlik davlatlarining tibbiyot uskunalar zavodlaridan stomatologik, fizioterapevtik, rentgen-diagnostik, nafas apparatlari kabi zamonaviy 388 turdagi 1 milliard 336 ming so'm-ko'ponli hamda 316 ming dollarlik horijiy tibbiy asbob-uskunalar olib kelingan.

Viloyat aholisini dori-darmonga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida sanoat korxonalar mahsulotlari, paxta tolasi va boshqa hom-ashyolarni ayirboshlash hisobiga 1994-yilning 8 oyi davomida 10 million 784 ming so'mlik dori-darmonlar olib kelinib, bemorlarni davolash uchun ishlatilgan[4].

Dori ta'minotini yanada yaxshilash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 11-martdagi 132-sonli Qarori asosida Farg'ona viloyatidagi hususiy lashtirilishi rejalashtirilgan 234 dorixonadan 219 tasi hususiy lashtirilgan.

Kasalliklarni oldini olishga qaratilgan tprofilaktik tadbirlarni o'z vaqtida o'takazilayotganligi sababli yuqumli kasalliklar bilan kasallanish yidan yilga kamayib, ohirgi 3 yil davomida ich terlama, virusli gepatit, qizamiq, o'tkir oshqozon ichak kasalliklari 20 foizga kamaygan[4].

1996-yilga kelib, viloyat hokimligining sog'liqni saqlash boshqarmasi qishloqlarda joylashgan birlamchi tibbiy muassasalarni moddiy texnika bazasini yaxshilash, ularni yuqori malakali xodimlar bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratdi. Bu davrda qishloq aholisining sog'lig'ini saqlash, kasalliklarning oldini olish borasida 647 ta FAP, 147 ta qishloq hakimlik ambulatoriyasi va 39 ta qishloq uchastka shifoxonasi faoliyat ko'rsatgan.

Joylardagi hokimliklar hamda ho'jaliklarning bevosita yordamiga suyanan xolda 30 dan ortiq qishloq vrachlik ambulatoriyasi, 50 dan ortiq feldsher-akusherlik punktlari foydalanishga topshirilgan.

Iqtisodlashgan tibbiy yordamini qishloq aholisiga yaqinlashtirish maqsadida birlamchi tibbiy muassasalarida 40 dan ortiq klinik laboratoriya, 30 dan ortiq fizioterapevtik xonalar, 28 dan ortiq stomatologik kabinetlar tashkil etilgan[5].

Viloyatga keltirilgan tibbiy anjomlarning 60 foizdan ortig'i qishloqlardagi birlamchi tibbiy muassasalarni jihozlash uchun ajratilgan. 28 ta qishloq uchastka shifoxonasida 98 ta qishloq vrachlik ambulatoriyalarida 1 ming 217 ta o'rin-joyga ega bo'lgan kunduzgi o'rin-joylar tashkillanib, bu o'rin-joylarda faqatgina 1995-yildan 34 ming nafardan ortiq qishloq aholisi o'z salomatligini tiklagan.

Lekin qishloq aholisiga ko'rsatilayotgan tibbiy yordam darajasi, shahar fuqarolari olayotgan tibbiy yordam darajasida bo'lmagan. Buning asosiy sabablari, birinchidan, qishloq aholisining 60 foizdan ortig'i birlamchi tibbiy yordamni feldsher-akusherlik punktlarida o'rta tibbiyot xodimi tomonidan olganligi, ikkinchidan, qishloqdagi birlamchi tibbiy muassasalarning 56 foizdan ortig'i moslashtirilgan binolarda joylashtirilganligida bo'lgan. Ularning 50 foizi telefon aloqasi, 37 foizi mo'zlatgichga ega bo'lmagan. 55 foizi esa vodoprovod suvi bilan ta'minlanmagan.

1996-yil 31-mayda viloyat hokimining 122-qarori bilan 1996-yilda qurilishi kerak bo'lgan 4 ta qishloq vrachlik punktlari qurish (Ohunboboyev tumani "Namuna" jamoa xo'jaligida, So'h tumani Sariqanda qishlog'ida, Furqat tumani

Navbahor qishlog'ida Yozyovon tumani Navoiy nomli jamoa xo'jaligida) hamda vrachlik punktiga aylantirilishi kerak bo'lgan 13 ta birlamchi tibbiy muassasalar Oltiariq, Buwayda, Farg'ona, Beshariq, Toshloq, Bog'dod, O'zbeqiston tumanlarida 7 ta QVA ni Beshariq, Quva, Uchko'prik, Dang'ara, Rishton tumanlarida hamda Quvasoy shahrida 6 ta FAP qishloq vrachlik punktiga aylantirildi[5].

2000-yilgacha bo'lgan davrda viloyatda respublikaning markazlashgan mablag'lari hisobiga 40 ta qishloq vrachlik punktlari qurilishi rejalashtirilgan bo'lsa, mavjud birlamchi tibbiy muassasalarning 20 tasi qishloq vrachlik punktlariga aylantirilib, 60 ta qishloq vrachlik punktlari ishga tushirilgan[5].

Vazirlar Mahkamasining 182-qarori asosida Farg'ona viloyatida 1996 – 2000-yillar davomida jami bo'lib qishloq aholisiga 60 ta tibbiy muassasalar qurilishi rejalashtirilgan bo'lib, viloyatda ushbu qarorning bajarilishida sustkashliklarga yo'l qo'yilgan. Masalan, 1997-yili yangidan qurilishi zarur bo'lgan 9 ta qishloq vrachlik punktlari faqatgina 1 tasi qurilgan. Birlamchi tibbiy muassasa bo'lmish 7 ta feldsher-akusherlik punktlaridan qishloq vrachlik punktlarini tashkillash qoniqarsiz ahvolda bo'lgan[4].

Faqatgina So'x va Oltiariq tumanlarida qishloq vrachlik punktlari uchun 2 qavatli, zamon talabiga javob beradigan binolar ajratildi xolos. FAPlarni qurish yo'li bilan qishloq hakimlik punktlari tashkillash Ohunboboyev, Toshloq Rishton, Buwayda, Vog'dod tumanlarda qoniqarsiz holatda bo'lgan.

Qishloq vrachlik punktlarini tashkil qilish bilan birga ularni jahon andozalari darajasida jihozlashga, tibbiy xodimlarni malakasini oshirishga ham katta e'tibor qaratilgan. Bu davrga kelib viloyatdagi 256 ta qishloq vrachlik punktlarini "Jahon banki" tomonidan ajratilgan kredit hisobiga zamonaviy chet elda ishlab chiqarilgan tibbiy jihozlar bilan ta'minlangan[4].

2010-yilga kelib viloyat aholisiga 12 ming 801 ta o'rin joyga ega bo'lgan 78 ta shifoxona, bir smenadagi qabul quvvati 41 ming 272 ga teng bo'lgan 403 ta ambulatoriya-poliklinika muassasalari, 20 ta tez tibbiy yordam stansiyalari va bo'limlari, 6 ta sanatoriya, 20 ta davlat sanitariya epidemiologiya nazorati markazlari 2 ta bolalar uylari va 5 ta boshqa tibbiy muassasalar faoliyat ko'rsatgan[2].

Xulosa va takliflar. 1991 – 2010-yillarda Farg'ona viloyati sog'liqni saqlash tizimida amalga oshirilgan islohotlar tizimli va bosqichma-bosqich quyidagi xarakterga ega bo'ldi.

Birinchidan, 1991 – 2000-yillarda Farg'ona viloyati sog'liqni saqlash tizimi sobiq ittifoq davridan qolgan markazlashgan boshqaruv, moliyalashtirishning yetarli emasligi va moddiy-texnik ta'minotning zaifligi bilan tavsiflanar edi. Bu davrda asosiy e'tibor aholi uchun tibbiy xizmatning minimal kafolatlangan hajmini ta'minlashga qaratildi. Viloyatda mavjud shifoxonalar, poliklinikalar va qishloq vrachlik punktlari faoliyatini saqlab qolish muhim vazifa sifatida belgilandi.

Ikkinchidan, 2000-yillardan boshlab Farg'ona viloyatida sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Bu davrda mamlakat miqyosida qabul qilingan davlat dasturlari doirasida qishloq joylarda tibbiy xizmatni yaxshilashga alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, qishloq vrachlik punktlari tashkil etildi va ular zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlandi. Viloyatda birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini rivojlantirish islohotlarning ustuvor yo'nalishiga aylandi. Bu aholining kasalliklarni barvaqt aniqlash va profilaktika qilish imkoniyatlarini kengaytirdi.

Uchinchidan, viloyat sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishda moddiy-texnik bazani mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etdi. Viloyatdagi yirik tibbiyot muassasalarida

kapital ta'mirlash ishlari amalga oshirildi, zamonaviy diagnostika va davolash uskunalari joriy etildi. Bu tibbiy xizmat sifatini oshirishga, aholining viloyatdan tashqarida davolanish ehtiyojini kamaytirishga xizmat qildi. Kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash masalasi ham islohotlarning muhim tarkibiy

qismi bo'ldi. Shifokorlar va o'rta tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish, zamonaviy tibbiy texnologiyalarni o'zlashtirish uchun shart-sharoitlar yaratildi. Mazkur davrda qo'yilgan asoslar keyingi yillarda sog'liqni saqlash tizimini yanada rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratdi.

ADABIYOTLAR

1. Farg'ona viloyati davlat arxivi 1220-fond, 1-ro'yxat, 5-yig'majild.
2. Farg'ona viloyati davlat arxivi 1220-fond, 1-ro'yxat, 20-yig'majild.
3. Farg'ona viloyati davlat arxivi 1220-fond, 1-ro'yxat, 60-yig'majild.
4. Farg'ona viloyati davlat arxivi 1220-fond, 1-ro'yxat, 6-yig'majild.
5. Farg'ona viloyati davlat arxivi 1220-fond, 1-ro'yxat, 161-yig'majild.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoni arxivining Farg'ona viloyati bo'limi. 2048-fond, 21-ro'yxat, 27-yig'majild.